



YASHIL MOLIYA: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

niholakhon06@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-9264-6724>

Annotatsiya. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ekologik barqarorlik va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish global iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu maqolada yashil moliyaning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni, uning rivojlanish tendensiyalari hamda O‘zbekiston tajribasi tahlil qilingan. Maqolada BMT, OECD, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlarning so‘nggi statistik ma’lumotlari asosida global yashil obligatsiyalar bozori hajmining ortib borayotgani, investitsiya oqimlari kengayib, ESG mezonlari moliya tizimining ajralmas qismiga aylangani yoritilgan. O‘zbekiston misolida esa SDG obligatsiyalari va birinchi yashil suveren obligatsiyalar emissiyasi mamlakat iqtisodiyotida yangi bosqichni boshlab bergani ta’kidlangan. Maqola natijalariga ko‘ra, yashil moliya O‘zbekiston uchun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Abstract. In recent years, environmental sustainability and the fight against climate change have become among the top priorities of global economic policy. This article analyzes the role of green finance in the world economy, its development trends, and the experience of Uzbekistan. Based on the latest statistical data from the UN, OECD, and the World Bank, the paper highlights the growing volume of the global green bond market, the expansion of investment flows, and the integration of ESG principles into the financial system. Using Uzbekistan as a case study, the article notes that the issuance of SDG and the first green sovereign bonds marked a



new phase in the country's economic transformation. The findings suggest that green finance is not only environmentally significant but also economically beneficial for Uzbekistan's long-term sustainable development.

Аннотация. В последние годы экологическая устойчивость и борьба с изменением климата стали одними из приоритетных направлений мировой экономической политики. В статье рассматривается роль «зеленых финансов» в мировой экономике, тенденции их развития, а также опыт Узбекистана. На основе последних статистических данных ООН, ОЭСР и Всемирного банка показано увеличение объема рынка зеленых облигаций и рост интереса инвесторов к устойчивым проектам. На примере Узбекистана отмечается, что выпуск SDG-облигаций и первых суверенных зеленых облигаций стал новым этапом в развитии национальной экономики. Сделан вывод о том, что зеленые финансы являются не только экологически, но и экономически значимым направлением для устойчивого развития страны.

Kalit soʻzlar: yashil moliya, barqaror rivojlanish, yashil obligatsiyalar, ESG investitsiyalar, Oʻzbekiston, ekologik iqtisodiyot.

Kirish. Soʻnggi yillarda iqlim oʻzgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik inqirozlar nafaqat ekologik, balki iqtisodiy muammoga ham aylandi. Shu sababli, jahon miqyosida barqaror rivojlanishni taʼminlash uchun moliyaviy tizimlarni qayta koʻrib chiqish zarurati tugʻildi. Ana shunday sharoitda “yashil moliya” tushunchasi shakllanib, iqtisodiyotning ekologik yoʻnalishda oʻsishini taʼminlovchi eng muhim vositalardan biriga aylandi. Yashil moliya — bu atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, aksincha ekologik foyda keltiradigan loyihalarni moliyalashtirish tizimidir. Boshqacha aytganda, bu — iqtisodiy oʻsish va tabiat muhofazasini uygʻunlashtiruvchi mexanizm. Jahon miqyosida bu soha jadal rivojlanmoqda: 2024-yilda global yashil obligatsiyalar bozori hajmi qariyb 653,9 milliard AQSh dollariga yetgani qayd etilgan. Bu esa investorlar ekologik barqaror



loyihalarga tobora ko‘proq e‘tibor qaratayotganini ko‘rsatadi (TechSci Research, 2024). O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda ushbu jarayondan chetda qolmayapti. 2021-yilda mamlakat ilk bor Barqaror taraqqiyot maqsadlari (SDG) obligatsiyalarini xalqaro bozorda 235 million dollar miqdorida joylashtirdi. Bu mintaqada o‘ziga xos tarixiy voqea bo‘lib, mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi ilk amaliy qadami sifatida e‘tirof etildi (UNDP, 2022). OECD (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston hozirda yashil moliyalashtirishni milliy strategiyaning ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda bu yo‘nalishdagi imkoniyatlar bilan bir qatorda muammolar ham mavjud. Masalan, mahalliy kapital bozorining hali yetarlicha rivojlanmagani va davlatning iqtisodiyotdagi ulushi xususiy sektorning yashil loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Shu sababli, yashil moliyani rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash, investorlarga rag‘bat yaratish va xalqaro tajribalarni o‘rganish zarur. Mazkur maqolada yashil moliyaning jahon miqyosidagi rivojlanish tendensiyalari, ularning O‘zbekiston amaliyotida qo‘llanilishi hamda bu jarayonning iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish va mamlakatda yashil moliya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Metodologiya. Bu maqolani yozishda asosiy maqsad — yashil moliya tizimini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy misollar va raqamlar orqali yoritish bo‘ldi. Shu sababli tahlil jarayonida bir nechta manbalar uyg‘un holda qo‘llanildi. Avvalo, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), OECD, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va boshqa xalqaro tashkilotlarning so‘nggi yillardagi hisobotlari diqqat bilan o‘rganildi. Ular orqali jahonda yashil moliyaning qanday shakllanayotgani, qaysi moliyaviy vositalar samarali bo‘layotgani va davlatlar bu sohada qanday siyosat yuritayotgani aniqlab chiqildi. Olingan ma’lumotlar asosida tahliliy va tavsifiy yondashuv ishlatildi. Bu yondashuv har bir fakti quruq raqam sifatida emas, balki ma’noli tahlil sifatida yoritish imkonini



berdi. Masalan, TechSci Research (2024) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global yashil obligatsiyalar bozori hajmi 653,9 milliard AQSh dollariga yetgan — bu shunchaki raqam emas, balki investorlarning barqaror iqtisodiyotga bo'lgan ishonchi ortayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada taqqoslama tahlildan ham foydalanildi. Bu orqali Xitoy, Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi davlatlarda yashil moliya qanday yo'nalishda rivojlanayotganini O'zbekiston tajribasi bilan qiyoslab ko'rish imkonini berdi. Masalan, Yevropa Ittifoqida "Green Deal" siyosati orqali har bir moliyaviy qaror ekologik mezonlar bilan baholanayotgan bo'lsa, O'zbekistonda bu jarayon endigina shakllanmoqda. O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlar esa, UNDP (2022) va OECD (2023) hisobotlaridan olindi. Ularda 2021-yilda chiqarilgan 235 million dollarlik SDG obligatsiyalari mamlakatning yashil moliya bozorini yo'lga qo'yishdagi dastlabki bosqichi sifatida qayd etilgan. Bu raqamlar O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'nalishida amaliy qadam tashlayotganini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda butun dunyoda barqaror rivojlanishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar — xususan, yashil va ijtimoiy obligatsiyalar, ESG investitsiyalar bozorining jadal kengayishi kuzatilmoqda. 2024-yilga kelib, global miqyosda chiqarilgan "labelled sustainable" (ya'ni ekologik, ijtimoiy va barqarorlikka yo'naltirilgan) obligatsiyalar hajmi 6,9 trillion AQSh dollariga yetgani qayd etilgan. Faqat 2024-yilning o'zida ushbu yo'nalishda yangi emissiyalar 1,05 trillion dollarni tashkil qilgan. Bu esa yashil moliyaning jahon miqyosida strategik ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Yashil obligatsiyalar umumiy "barqaror obligatsiyalar" segmentining qariyb 57 foizini egallab, investorlarning ekologik xavfsizlik va iqlim barqarorligiga qaratilgan loyihalarga bo'lgan qiziqishi tobora ortib borayotganini isbotlaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, 2024-yilda ushbu obligatsiyalar bozorida emissiya hajmi 20 foizga o'sib, birinchi marta 1 trillion dollarlik darajani bosib o'tgan. Biroq Bank for International Settlements (BIS) ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmiga nisbatan bu miqdor hanz yetarli emas — yillik yashil obligatsiyalar emissiyasi 700



milliard dollar atrofida bo‘lib, bu global ehtiyojdan sezilarli darajada kam. Shunga qaramay, bu sohadagi ijobiy o‘shish tendensiyasi jahon moliya tizimining barqarorlik tamoyillariga tobora moslashib borayotganidan dalolat beradi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining 2024-yil birinchi choragidagi ma’lumotlariga ko‘ra, barqaror moliya yo‘nalishidagi investitsiya fondlariga 11 milliard dollar yangi mablag‘ kiritilgan. Bu global investorlarda ekologik va ijtimoiy mas’uliyatli loyihalarga sarmoya kiritish istagi ortayotganini tasdiqlaydi. Demak, bugungi kunda yashil moliya nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash vositasi, balki iqtisodiy o‘shishning yangi dvigateli sifatida qaralayotgani ayon bo‘lmoqda. O‘zbekiston ham bu global tendensiyalardan chetda qolmayapti. 2021-yilda mamlakat tarixida ilk bor Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) obligatsiyalari emissiyasini amalga oshirib, 235 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ jalb qildi. Ushbu obligatsiyalar orqali ta’lim, sog‘liqni saqlash, ayollar tadbirkorligi va infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy loyihalar moliyalashtirildi. Bu tashabbus Markaziy Osiyo mintaqasida o‘ziga xos innovatsion tajriba sifatida e’tirof etildi. Keyingi bosqichda, 2023-yilda O‘zbekiston birinchi marta yashil suveren Eurobond emissiyasini amalga oshirib, 4,25 trillion so‘mlik obligatsiyalarni xalqaro bozorga chiqardi. Ushbu qadam mamlakatning ekologik yo‘nalishdagi loyihalarni mustaqil ravishda moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirdi. Yashil obligatsiyalar hisobiga energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha qator loyihalar rejalashtirilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonning moliya tizimi hanuzgacha to‘liq shakllangan yashil moliyaviy infratuzilmaga ega emas. OECD tomonidan tayyorlangan “Financing Uzbekistan’s Green Transition” hisobotida qayd etilishicha, mamlakatda davlat sektori iqtisodiyotda hali ham katta ulushni egallaydi va bu xususiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini sekinlashtiradi. Mahalliy kapital bozori rivojlanmaganligi, normativ-huquqiy asoslarning yetarli emasligi va investorlarga soliq rag‘batlarining sustligi yashil moliyaning keng rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Biroq so‘nggi



yillarda ayrim ijobiy o'zgarishlar ham kuzatilmoqda. Masalan, 2023-yil avgust oyida "Sanoat Qurilish Bank" mamlakatdagi ilk korporativ yashil obligatsiyalarni emissiya qilib, milliy moliya bozorida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu xususiy sektorning ham ekologik loyihalarga e'tibor qaratayotganini anglatadi. Shu tarzda, davlat tashabbuslari bilan bir qatorda, xususiy sektorni rag'batlantirish O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhim omil sifatida shakllanmoqda. Umuman olganda, global va milliy tajribalarni tahlil qilganda, O'zbekiston hali jahon ko'rsatkichlaridan ancha orqada bo'lsa-da, mavjud yutuqlar mamlakatning yashil moliyani rivojlantirishga tayyorligini ko'rsatadi. Yashil obligatsiyalar va barqaror moliyaviy vositalarning rivoji nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki iqtisodiyotda uzoq muddatli investitsiya oqimini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu sababli, O'zbekiston uchun asosiy vazifa — normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va xalqaro tajribani bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Xulosa va tavsiyalar. So'nggi yillarda yashil moliya nafaqat global miqyosda, balki O'zbekiston iqtisodiyotida ham barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida shakllanib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik barqarorlikni ta'minlash endilikda faqat davlat siyosatining emas, balki moliyaviy tizimning ham asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Xalqaro miqyosda yashil obligatsiyalar, ESG investitsiyalar va barqaror fondlar bozori yil sayin kengayib, investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayon moliya dunyosining faqat foyda olishga emas, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni ham o'z zimmasiga olayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun bu yo'nalish hali yangilik bo'lsa-da, so'nggi yillarda amalga oshirilgan qadamlar ijobiy natijalar berayotgani sezilmoqda. 2021-yilda chiqarilgan SDG obligatsiyalari va 2023-yilda emissiya qilingan birinchi yashil suveren obligatsiyalar mamlakatning xalqaro moliya tizimida barqaror ishtirokini ta'minlashda muhim bosqich bo'ldi. Bunday tashabbuslar ekologik toza energiya manbalariga sarmoya kiritish, chiqindilarni



kamaytirish va yashil infratuzilmani rivojlantirish imkonini bermogda. Shu bilan birga, xususiy sektor ham bosqichma-bosqich bu jarayonga qo'shilmogda, bu esa iqtisodiyotning yanada ochiq va raqobatbardosh shaklga kirishidan darak beradi. Biroq hozirgi holatni baholaganda, ayrim muammolar hali ham mavjud: moliyaviy infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani, soliq va kredit imtiyozlarining cheklanganligi, shuningdek, investorlarga ishonch beruvchi barqaror reyting tizimining yo'qligi bu sohaning tez rivojlanishiga to'sqinlik qilmogda. Shuning uchun O'zbekiston uchun eng muhim vazifalardan biri — yashil moliyani tartibga soluvchi aniq me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va moliyaviy bozor qatnashchilariga qulay sharoit yaratishdir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, xalqaro standartlarni joriy etish va ekologik hisobot tizimini yo'lga qo'yish bu sohada sezilarli natijalarga erishish imkonini beradi. Masalan, Yevropa Ittifoqining "Green Taxonomy" tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirish, O'zbekistonning yashil loyihalarini aniq mezonlar asosida baholash va investorlar uchun shaffof ma'lumotlar bazasini yaratish dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, yashil moliya O'zbekiston uchun faqat ekologik emas, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali yo'nalishdir. U nafaqat yangi ish o'rinlari yaratadi, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Shu sababli, bu sohada davlat siyosatini izchil davom ettirish, xususiy sektorni faol jalb qilish va xalqaro tajribalarni bosqichma-bosqich tatbiq etish zarur. Aynan shunday yondashuvgina O'zbekistonni yashil iqtisodiyot yo'lida barqaror harakatlanayotgan davlatlar safiga qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. OECD. (2021). Green Entrepreneurship and Innovation for Sustainable Development.



2. Rennings, K. (2000). Redefining innovation—eco-innovation research and the contribution from ecological economics. *Ecological Economics*, 32(2), 319–332.
3. United Nations Environment Programme. (2023). Global Green Economy Progress Report.
4. Jahon banki. (2024). *Uzbekistan: Path to a Green Economy*.
5. Eurostat. (2023). Green jobs in the European Union.
6. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2024). Rasmiy axborot.
7. German Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action. (2022). Eco-innovation indicators.
8. Asian Development Bank. (2023). *Green Financing in Central Asia*.
9. Baxriddinova, T. N. (2025). MECHANISMS FOR ATTRACTING INVESTMENTS IN FINANCING SOCIAL SPHERES. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 4(1), 83-89.
10. Talapova, N. B. (2024). AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASH VA UNING DAROMADINI OSHIRISHDA IJTIMOY TADBIRKORLIKNING AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 5(TSUE Conference 1), 326-329.